

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,**  
**CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti**  
**60840100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)**  
**3-bosqich I oqim talabalari uchun**

**«OPERATIV XIRURGIYA VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA»**

**FANIDAN**

**“ITLARDA GASTROTOMIYA, ENTEROTOMIYA VA ICHAKLARNI  
KESISH TEXNIKASI. TO‘G‘RI ICHAKDA O‘TKAZILADIGAN  
OPERATSIYALAR. DABBALARNI JARROXLIK YO‘LI BILAN  
DAVOLASH”**

**mavzusida o‘tkaziladigan ma’ruza mashg‘uloti bo‘yicha ochiq dars  
materiallari.**

**Samarqand – 2023**

**Tuzuvchilar:**

**Narziyev B.D.** – “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasi professori v.b., v.f.n.

**Taqrizchilar:**

- 1. N.B.Dilmurodov** -Hayvonlar anatomiyasi, histologiyasi va patologik anatomiya kafedrasi professori, v.f.d.
- 2. A.A.Nurullayev** - Samarqand viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, biologiya fanlari nomzodi.

**Mavzu: Itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To‘g‘ri ichakda o‘tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo‘li bilan davolash.**

### **Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi**

Vaqt: 80 daqiqa	<i>Talabalar soni: 76 ta</i>
O‘quv mashg‘uloti shakli	Axborot ma’ruzasi, “birgalikda o‘rganish” usuli va B/B/B grafik organayzer jadvalidan foydalangan holda.
O‘quv mashg‘uloti rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ichaklardagi operatsiyalar: anatomo-topografik ma’lumot. Katta va mayda hayvonlar enterotomiyasi. Ichak rezeksiyasi (kesish).</li> <li>2. Dabbalar va tasniflanishi:. To‘g‘ri bo‘ladigan, to‘g‘ri bo‘lmaydigan, qisilgan dabbalarni operativ yo‘l bilan davolash.</li> <li>3. Kindik, qorin yonbosh devoridagi, chov kanali, urug‘don xalta dabbalarni operatsiya qilish.</li> <li>4. To‘g‘ri ichak va anus (orqa chiqaruv teshigi) dagi operatsiyalar. Anatomo-topografik ma’lumot.</li> <li>5. To‘g‘ri ichak rezeksiyasi. Sun’iy yo‘l bilan orqa chiqaruv teshigini hosil qilish (kolostomiya).</li> </ol>

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To‘g‘ri ichakda o‘tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo‘li bilan davolash to‘g‘risida talabalarda chuqur bilim hosil qilish.

#### **Pedagogik vazifalar:**

- Ichaklardagi operatsiyalar: anatomo-topografik ma’lumot. Katta va mayda hayvonlar enterotomiyasi. Ichak rezeksiyasini tushuntirib berish;
- Dabbalar va tasniflanishi:. To‘g‘ri bo‘ladigan, to‘g‘ri bo‘lmaydigan, qisilgan dabbalarni operativ yo‘l bilan davolashni tushuntirib berish;
- Kindik, qorin yonbosh devoridagi, chov kanali, urug‘don xalta dabbalarni operatsiya qilish;
- To‘g‘ri ichak va anus (orqa chiqaruv teshigi) dagi operatsiyalar. Anatomo-topografik ma’lumot.
- To‘g‘ri ichak rezeksiyasi. Sun’iy yo‘l bilan orqa chiqaruv teshigini hosil qilish

#### **O‘quv faoliyatining natijalari:**

talabalar:

- Ichaklardagi operatsiyalar: anatomo-topografik ma’lumot. Katta va mayda hayvonlar enterotomiyasi. Ichak rezeksiyasining texnikasini o‘zlashtirib oladilar;
- Dabbalar va tasniflanishi:. To‘g‘ri bo‘ladigan, to‘g‘ri bo‘lmaydigan, qisilgan dabbalarni operativ yo‘l bilan davolashni o‘rganadilar;
- Kindik, qorin yonbosh devoridagi, chov kanali, urug‘don xalta dabbalarni operatsiya qilish texnikasini o‘rganadilar;
- To‘g‘ri ichak va anus (orqa chiqaruv teshigi) dagi operatsiyalar texnikasini hamda anatomo-topografik ma’lumotlarni o‘zlashtirib oladilar.

O‘qitish uslubi va texnikasi	Ma’ruza, “birgalikda o‘rganish” usuli, texnikalari: insert, blis savol-javoblar, prezентasiya, grafik organayzer: B/B/B jadvali
O‘qitish vositalari	Doska, mel, dars ishlanmasi, marker, tarqatma materiallar, videoproyektor.
O‘qitish shakli	Frontal, alohida ishlash va guruhda ishslash
O‘qitish sharoitlari	Guruhda ishslashga mo‘ljallangan auditoriya

### **Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1 - bosqich. Kirish (5 daq.)	1.1. Ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va natijalari hamda uni tashkil etish rejisi bilan tanishtiradi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2 - bosqich. Bilimlarni faollashtirish (15 daq.)	2.1. Mavzuning kalit so‘zlarini, yangi tushunchalarini doskaga yozadi. Ushbu tushunchalarga ta’rif berishlari uchun blis savol-javobni o‘tkazadi.	2.1. Eshitadilar. Kalit so‘zlarni aytadilar. 2.2. Kalit so‘zlarga ta’rif beradilar.
3 - bosqich. Asosiy (50 daq.)	3.1. Erkin holatda talabalarini 5 ta guruhga bo‘ladi. Har bir guruh mavzuning bitta savoli bo‘yicha “ekspert” bo‘ladi. O‘quv topshirig‘ini tarqatadi (1-ilova), “Guruh faoliyatini baholash jadvali” va baholash ko‘rsatkichi hamda mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhda ishslashning boshlanganligini e’lon qiladi. 3.2. Prezentasiya boshlanganligini e’lon qiladi. Maslahatchi-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va har bir guruh taqdim etgan ma’lumotni umulashtiradi.	3.1. Guruhda ishlaydilar: o‘quv savollari bo‘yicha javoblar tayyorlaydilar, natjalarni jamoa bo‘lib muhokama qiladilar va o‘z taqdimotlarini tayyorlaydilar. 3.2. Prezentasiya: guruh sardori taqdimotdan foydalangan holda o‘quv materiallari bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi. Boshqa guruh vakillari ma’lumotlarni to‘ldiradi, taqdimotni baholaydilar.

<p>4-bosqich. Yakuniy (10 daq.)</p>	<p>O‘zaro baholash natijalarini e’lon qilishni taklif etadi.</p> <p>4.2. B/B/B jadvalining 3-ustunini to‘ldirishga topshiriq beradi, blis savol-javob o‘tkazadi.</p> <p>4.3. Umumiy xulosa qiladi, talabalar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi, mustaqil ishlash uchun nazorat topshirig‘ini beradi (3-ilova).</p>	<p>4.1. Taqdimot jarayonida qo‘ygan ballarini e’lon qiladi.</p> <p>4.2. B/B/B jadvalining 3- ustunini to‘ldiradi va uning mazmunini aytib beradi.</p>
---	--	---

## **ITLARDA GASTROTOMIYA, ENTEROTOMIYA VA ICHAKLARNI KESISH TEKNIKASI. TO‘G‘RI ICHAKDA O‘TKAZILADIGAN OPERASIYALAR. DABBALARNI JARROXLIK YO‘LI BILAN DAVOLASH..**

### **MA’RUZA REJASI:**

1. Ichaklardagi operatsiyalar: anatomo-topografik ma’lumot. Katta va mayda hayvonlar enterotomiysi. Ichak rezeksiyasi (kesish).
2. Dabbalar va tasniflanishi:. To‘g‘ri bo‘ladigan, to‘g‘ri bo‘lmaydigan, qisilgan dabbalarni operativ yo‘l bilan davolash.
3. Kindik, qorin yonbosh devoridagi, chov kanali, urug‘don xalta dabbalarni operatsiya qilish.
4. To‘g‘ri ichak va anus (orqa chiqaruv teshigi) dagi operatsiyalar. Anatomo-topografik ma’lumot.
5. To‘g‘ri ichak rezeksiyasi. Sun’iy yo‘l bilan orqa chiqaruv teshigini hosil qilish (kolostomiya).

**Tayanch iboralar:** ingichka ichak, yo‘g‘on ichak, gastrotomiya, enterotomiya, suniy teshik, kolostomiya, chov kanali, urug‘don xalta, dabba.

### **Gastrotomiya texniksi.**

Bu operasiya asosan itlarda olib boriladi.

#### Anatomo – topografik ma’lumotlar.

Itlarning oshqozoni asosiy qismi chap qovurg‘a osti va qilichsimon tog‘ay qismida joylashadi. Oldi tarafi jigarga tegsa, orqa tarafi 12- qovurg‘acha yetib boradi ventral yuzasi qorin devori tomon qaragan, u to‘lgan vaqtida unga tegib turadi. Oshqozonni kichik qiyasi oldinga yo‘naltirilgan va kichik charvi orqali jigar bilan birikkan. Oshqozonni katta kiyasida kaudal tomonga katta charvi yo‘naltirilgan, u qorindagi organlari qorin devoridan ajratib turadi.

Kursatmasi - oshqozon yoki qizilungachni pastki qismiga begona jismlarni tigilib qolishida.

Og‘riqsizlantirish- bezovta bo‘ladiganlarga narkoz, neyrolept-analgeziya – 2.5 % aminazin 1 ml 10 kg tirik vazngacha, rampun, rometar – 0,15 gr 1 kg, ketamin, kolipsol, ketanal – 1 mg 1 kg, kesim chizig‘i buylab infiltrasion og‘riqsizlantirish, plevra usti novokain blokadasi Mosin buyicha.

### Operasiya texnikasi.

Hayvon yelkadan fiksasiya qilinadi. Kesim kindik oldi bo‘limida amalga oshiriladi, uzunligi 10 – 12 sm, u medial yoki paramedial olib borilishi mumkin. Qo‘lni korin bo‘shlig‘iga tushirib oshqozon begona jism bilan birga jarohat orqali tashqariga chiqariladi. Shundan sung oshqozon salfetkalar yordamida chegaralinadi va qon tomirlar kam bulgan joyi kesiladi. Kesim orqali korsang yoki barmoq bilan begona jism olib tashlanadi. Operasiyaning yakuni bosqichida oshqozon jarohatiga Shmiden, Lamber choki quyiladi. Shundan sung qorin devori va teri choqlanadi. It bir necha kun parxezda ushlanadi. Choklar 7–10 kundan keyin olib tashlanadi.

### **Enterotomiya texnikasi**

Kursatmasi – ichakni yorish operasiyasi asosan kichik hayvonlarda bajariladi. Agar ichaklarda begona jismlar tiqilib qolgan bo‘lsa.

Asboblar – har doim ishlatiladigan asboblardan tashqari bir juft ichak qisqichi.

Og‘riqsizlantirish – narkoz neyroleptonolgeziya, mahalliy og‘riqsizlantirishi, plevra usti novokain blokadasi.

Operasiya texnikasi – hayvon orqasiga yoki yon tomoni bilan fiksasiya qilinadi. Kesim oq chiziq bo‘ylab kindikning orqa qismida olib boriladi. Laporotomiya o‘tkazilgandan keyin, ichak begona jism bilan tashqariga chiqariladi. Ichak devori nekrozga uchramagan lbo‘lsa, uni ichidagi ozuqa barmoqlar yordamida chap va o‘ng tarafga surilib ichak qisqichi bilan qisiladi. Ichak devori kesilgandan keyin begona jism olib tashlanadi. Jarohat lamber usuli bilan ikki qavat choklanadi. Ichak qorin bo‘shlig‘iga yuborilgandan keyin devori choklanib yopiladi.

### **Ichakni kesish texnikasi (resection intestini)**

Ko‘rsatmasi – perforasiya yoki ichak devorini nekrozga uchrashi; qisilishi natijasida ichak devorini nekrozga uchrashi; ichaklarni bir -biriga yopishishi yoki invaginasiya: o‘smlar, begona jismlarni tiqilib qolishi. Bu operasiya barcha turdagи hayvonlarda olib boriladi.

Asboblar – har doim ishlatadigan asboblardan tashqari ichak qisqichi, ligatura ignasi, Belrot qisqichi.

Og‘riqsizlantirish – mayda hayvonlarga narkoz, neyroleptiklar, mahalliy og‘riqsizlantirish, plevra usti novokain blokadasi.

Operasiya texnikasi – zararlangan ichakka nisbatdan laporotomiya o‘tkaziladi. Mayda hayvonlarda paramedikal, katta hayvonlarda och biqin yoki qorinni boshqa yonbosh qismida kesim olib boriladi. Ichakni kesish barcha hayvonlarda bir xil olib boriladi, hayvonni turiga qarab ayrim texnik o‘zgarishlar kiritilishi mumkin. Asosiy talab, ichak sog‘lom to‘kimalar chegarasida olib tashlanishi kerak.

Zararlangan ichak jarohat orqali tashqariga chiqariladi va salfetkalar bilan izolyasiya qilinadi. Axlatlar ikki tarafga silkitilgandan keyin ichak qisqichlari bilan qisiladi. Ichak chorvisidagi qon tomirlarga ikkitadan ligatura qo'yib bog'lanadi. Ichak qaychi yordamida kesiladi va shundan so'ng ligatura oralig'idagi charvi ham kesiladi. Tampon bilan jarohat tozalanadi va ichaklar bir - biriga biriktriladi. Asosan buning uchun ikkita usuldan foydalanish mumkin – uchini – uchiga va yonboshini - yonboshga.

Operasiyani yakuniy bosqichida qorin devori vat yeri choklanadi.

### To'g'ri ichakni kesish (resection recti)

A) anatomo – topografik tuzilishi – to'g'ri ichak (intestum rectum) tos bo'shlig'ini katta qismini egallaydi va iki qismiga bo'linadi: oldingi – qorin va orqa – retroperitoneal, u siyrak biriktiruvchi to'qima bilan o'ralgan. Dorsal tarafi dumg'azaning ventral yuzasiga va dumni boshlang'ich qismiga tegib turadi. Erkak hayvonlarda uning pastida siylik xalta, qo'shimcha jinsiy bezlar, siylik, urug' yo'llari va siylik chiqarish kanali joylashadi. Urg'ochi hayvonlarda esa bachadonni tanasi va qin joylashadi. Yuqorida keltirilgan organlar, to'g'ri ichak, qorin vat os devorlari orasida, erkak hayvonlarda uchta, urg'ochilarda turtta qursoq pardani burtiqlari hosil bo'lган. Tos bo'shlig'ini o'rta qismida to'g'ri ichak ampula shaklida kengayadi, keyin torayib orqa chiqaruvchi teshik bilan tugaydi. Katta hayvonlarda to'g'ri ichakning uzunligi 20-30 sm.

To'g'ri ichakni qon bilan ta'minlanishi gemorraidal tomirlar orqali amalga oshiriladi.

Innervasiyasi – o'rta, kaudal gemorraidal nervlar, tos va simpatik nervlar orqali.

Ko'rsatmasi – chiqib qolgan to'g'ri ichakni devorini yorilishi va nekrozga uchrashi.

Tayyorlarlik – ichak tozalanib, yuvilib, dezenfeksiya qilinadi.

Fiksasiya – katta hayvonlar tik turgan, maydalari yotgan holatda fiksasiya qilinadi.

Og'riqsizlantirish – katta hayvonlarga pastki sokral, maydalarga – yuza anesteziya, neyroleptanalgeziya. Anri usuli bo'yicha to'g'ri ichakni qayta tos bo'shlig'iga yuborish. Buning uchun ichakni tashqariga chiqqan qismi 0,1 % kaliy permanganat yoki 1:1000 nisbat etakridin laktit (rivanol) eritmasi bilan yaxshilab yuviladi, yopishgan begona jismlar olib tashlanadi. Shundan so'ng vazelin surtib asta-sekin ichkariga yuboriladi va orqa chiqaruvchi teshik atrofiga aylana chok qo'yiladi.

B) agar to'g'ri ichakni tashqariga chiqqan qismi nekrozga uchragan bo'lsa unda Olivkov yoki Myuller – Frin usuli bo'yicha kesib olib tashlanadi. Bu usullar bir – biridan ichakni fiksasiya qilish usuli bilan farq qiladi. Olivkov usuli bo'yicha buning uchun to'qish apizalari, mandren yoki inyeksiya ignalardan foydalilanadi. Myuller – Frin usuli bo'yicha krest shaklida o'tkazilgan migatura ishlataladi. Fiksasiya qilingan joydan 1-1,5 sm orqaga o'tib ichak aylana kesim bilan olib tashlanadi. To'g'ri ichak jarohatiga 0:5 sm uzoqlikda tugunli chok quyiladi va qolgan qismi tos bo'shlig'iga yuboriladi.

## To‘g‘ri ichakning shilliq pardasini kesish.

Ichak tozalanib dezinfeksiya qilingandan keyin anusdan 0,5 – 1 sm orqaga o‘tib ichakni shilliq pardasi aylana kesiladi va xudi shunday qilib chiqib qolgan qismini teshigi yonida kesim olib boriladi. Shundan so‘ng qaychi yordamida shilliq parda ostidagi qavatdan ajratib olinadi va kesib tashlanadi. Ikkita aylana kesim bir – biriga yaqinlashtirib tugunli chok bilan choklanadi.

V) sun’iy orqa chiqaruvchi teshik hosil qilish.

Kursatmasi – tug‘ilgan hayvon bolasida orqa chiqaruvchi teshikni yo‘qligi.

Fiksasiya – hayvon boshi pastga qtilib fiksasiya qilinadi.

Og‘riqsizlantirish – mahalliy infiltrasion.

Operasiya texnikasi – tabiiy orqa chiqaruvchi teshik joylashishi lozim bo‘lgan joyda teri oyna shaklida kesib olinadi. Hayvon yonbosh holatga o‘tkazilgandan keyin jarohattan ichak bo‘rtib chiqadi. Uni pinset bilan ushlab aylana kesish kerak va jarohat chetiga choklanadi.

Ayrim hollarda to‘gri ichak topilmasligi mumkin, bu ayniqla cho‘chqalarda ko‘proq uchraydi. Bunday holatda bajariladi.

Fiksasiya va og‘riqsizlantirish – barbiturat narkozi beriladi.

Operasiya texnikasi (Plonayt) usuli bo‘yicha

Tizza qatlamidan 2 sm modial o‘tib 4 sm uzunlikda kesim qilinadi yo‘nalishi kaudal to quroq pardagacha. U pinset bilan ushlatib qaychi yordamida kesiladi. Shundan so‘ng qursoq parda to‘g‘ri muskul chetiga uzlukli tikiladi. Hosil bo‘lgan teshik orqali barmoq bilan chambar ichakni pastki qismi topilib tashqariga chiqarilad. Ichak devori kesilgandan so‘ng jarohat cheti choklab qo‘yiladi. Bir soat keyin teshikdan axlat oqa boshlaydi.

## Qorin dabbasini operasiya usuli bilan davolash

A) dabba va uning klassifikasiyasi (tasniflanishi). Dabba (churra) – bu qorin bo‘shlig‘idagi organlarni qursoq parda bilan birgalikda qorin devoridagi anatomik va patologik teshiklar orqali terini ostiga tushishi. Dabba uchta elementdan tashkil topgan – daba teshigi daba xaltasi – qursoq parda va uni ichiga tushgan organlar.

Agar organlar terini ostiga qursoq pardasiz tushgsa, ya’ni muskullarni yorilishida, bunday patologiya prolapsus deb ataladi.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra daba: a) tug‘ma va b) ortirilgan bo‘ladi. Birinchisi anatomik teshik yopilmasa yoki xaddan tashqari katta bo‘lsa hosil bo‘ladi. Ikkinchisi – shikastlanish yoki operasiyadan keyin hosil bo‘ladi.

Joylashi bo‘yicha dabbalar quyidagilarga bo‘linadi: kindik, chot, qorin yonbosh devori, chov kanali urug‘don xalta (intravaginal) diafragmal, umurtqa pog‘onasi va boshqalar.

Klinik belgilarga qarab dabba kuyidagilarga bo‘linadi:

1. To‘g‘ri bo‘ladigan – organlar bemalol qorin bo‘shlig‘iga tushib chiqib yuradi.
2. To‘g‘ri bo‘lmaydigan – organ xalta bilan yopishganda
3. Qisilgan – ikkiga bo‘linadi – interstisial to‘qima bilan qisilishi (xalqa), axlat bilan qisilish, bu daba xavfli bo‘lib hisoblanadi.

B) kindik dabbasida operasiya o‘tkazish texnikasi.

Tayyorgarlik – hayvon 12 soatli parxezda ushlanadi ichaklarni tushashi uchun.

Fiksasya va og'riqsizlantirish – uyg‘unlashgan narkoz – mahalliy og'riqsizlantirish bilan birgalikda.

Itlarga neyroleptanalgeziya, kesim chizig‘i bo‘ylab infiltrasiya usuli.

Hayvon orqada yotgan holatda fiksasiya qilinadi.

### **Operatsiya texnikasi**

Operasiya o‘tkazishdan asosiy maqsad bu dabba teshigini yopish.

Agar dabba xaltasi katta bulmasa organlar bilan qorin bo‘shlig‘iga yuborilib teshikka uzlukli chok quyiladi.

Agar dabba xaltasi katta bo‘lsa organlar ichkariga yuborilgandan keyin xalta o‘z o‘qi atrofida uraladi va teshikka yaqin joyda ligatura bilan bog‘lanadi. Xalta reviziya qilingandan keyin olib tashlanadi. Qolgan qismi teshikka yuborilib chok bilan yopiladi. Agar xalta ichidagi organlar yopishgan bo‘lsa, ajratmasdan qaychi yordamida xaltadan kesib olinadi. Organlar qorin bo‘shlig‘iga yuborilgandan keyin teshik chok bilan yopiladi.

Operasiyaning yakuniy qismida – ortiqcha teri olib tashlanadi va choklanadi.

V) chov – urug‘don xalta dabbasida operasiya o‘tkazish texnikasi.

Kesim chov kanaliga nisbattan parallel olib boriladi. Hosil bo‘lgan jarohat orqali umumiy qin parda yorg‘oqdan organlar bilan birga tashqariga chiqariladi. Qorin teshigi orqali organlar ichkariga siqib yuboriladi, xalta o‘z o‘qi atrofida bir necha marta buraladi va teshikka yaqin joyda bog‘lanadi. Xalta reviziya qilingandan keyin olib tashlanadi. Qolgan qismi teshikka yuborilib choklanadi. Operasiyani yakuniy bosqichida teriga chok qo‘yiladi.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Operativ xirurgiya – X.K. Rustamov, Ya.A.Aqbutayev, B.D.Narziyev – O‘quv qo‘llanma 1997.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

2. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish. O‘quv qullanma. Toshkent, “Ma’naviyat” NMIU, 2021 yil. – 280 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezhulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

8. Dilmurodov N.B., Eshmatov G‘. “Hayvonlar anatomiyasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018 yil.
9. Weaver, Adrian Steiner and GuySt Jean. Bovine Surgery and Lameness, Second Edition/ © 2005 year/ Blackwell Publishing Ltd, 9600 Garsington Road, Oxford OX4 2DQ, UK.
10. Панинский С.М. «Оперативная хирургия с топографической анатомией», Учебник. “Колос”, Москва, 2008 год.
11. Начаев А.Ю., Семенов Б.С., Виденин В. С. «Оперативная хирургия животных», Лань, 2020 год.

**Internet saytlar:**

12. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
13. [www.Wikipedia.org](http://www.Wikipedia.org)
14. [www.animalsurgery.com](http://www.animalsurgery.com)
15. [www.Animalmedical.net](http://www.Animalmedical.net)

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA TEST SAVOLLARI**  
**Itlarda oshqozon yoki qizilo‘ngachni pastki qismiga begona jismlarni tiqilib qolishida qanday operatsiya o‘tkaziladi?**

- A. Laparotomiya.
- B. Rumenotomiya.
- C. Gastrotomiya.
- D. Enterotomiya.

**Gastrotomiya operatsiyasining yakuniy bosqichida oshqozon jarohatiga qanday chok quyiladi?**

- A. Uzluksiz chok.
- B. Plaxotin – Sadovskiy choki.
- C. Aylana chok.
- D. SHmiden- Lamber choki.

**Ichakni yorish operatsiyasi-bu?**

- A. Enterotomiya.
- B. Rumenotomiya.
- C. Laparotomiya.
- D. Gastrotomiya.

**CHiqib qolgan to‘g‘ri ichakni devorini yorilishi va nekrozga uchrashi oqibatida o‘tkaziladigan operatsiya-bu?**

- A. To‘g‘ri ichakning shilliq pardasini kesish.
- B. To‘gri ichakni kesish (resection recti).
- C. Laparotomiya.
- D. Enterotomiya.

**To‘g‘ri ichakni tashqariga chiqqan qismi nekrozga uchragan bo‘lsa, unda qaysi usul bo‘yicha kesib olib tashlanadi?**

- A. To‘g‘ri javob yoq.
- B. Myuller – Frin usuli.
- C. Olivkov usuli.
- D. B va D javoblar to‘g‘ri.

**Ichki organlarining qursoq parda bilan teri ostiga tushishiga nima deyiladi?**

- A. Prolapsus.
- B. Absses.
- C. Dabba.
- D. Flegmona.

**Kindik dabbalarini operatsiya usulida davolashda asosiy maqsad nima?**

- A. Tushgan organlarni joyiga qaytarib, dabba teshigini yopish.
- B. Tushgan organlarni joyiga qaytarib, dabba xaltasini olib tashlash.
- C. Dabba xaltasi va undagi organlarini olib tashlash.
- D. Dabba xaltasi va undagi organlarini qorin bo'shlig'iga yuborishga.

**Tushgan organlar dabba xaltasiga yopishganda nima qilish kerak?**

- A. Yopishgan joyi xaltadan, kesib olinadi, organlari bo'shliqga yuborib xalta olib tashlanadi va xalqaga chok qo'yiladi.
- B. Dabba xaltasi organlar bilan qorin bo'shliqga yuborilib xalqasiga chok qo'yiladi.
- C. Xalta devoridan yopishgan joyi preparovka kilinib ajratiladi organlar qorin bo'shlig'iga yuborilib, xalqaga chok qo'yiladi.
- D. Ichakning yopishgan joyi kesib olinadi, uchining uchiga birlashtirib qorin bo'shlig'iga yuboriladi va xaltasiga chok qo'yiladi.

**Sun'iy orqa chiqaruv teshigini xosil qilish texnikasi**

- A. To'g'ri ichak devori teshilib naycha tikib qo'yiladi.
- B. To'g'ri ichak shillik pardasi jaroxat chetiga tikib qo'yiladi.
- C. To'g'ri ichak devori teshiladi.
- D. To'g'ri ichak devori kesilib, jaroxat chetiga tikib qo'yiladi.

### **Topshiriq va savollar:**

1. Gastrotomiya va uni bajarishga ko'rsatmani ayting.
2. Itlarda gastrotomiya operatsiyasini o'tkazish texnikasini tushuntiring.
3. Gastrotomiyada qollaniladigan choklash materiallari va usullarini ziohlang.
4. Hayvonlarda ingichka ichaklarning tuzilishi haqida ma'lumot bering?
5. Yo'g'on bo'lim icharkariga nimalar kiradi va ularning tuzilishi haqida ma'lumot bering?
6. Enterotomiya operatsiyasini bajarishga ko'rsatmalar qanday bo'ladi?
7. Enterotomiya texnikasini tushuntiring.
8. Ichaklarni kesish operatsiyasini bajarishga ko'rsatmalar qanday bo'ladi?
9. Ichaklarni kesish operatsiyasi texnikasi qanday?
10. To'g'ri ichak va anal teshigining anatomo-topografiyasini haqida gapiring.
11. To'g'ri ichakni kesish operatsiyasini bajarishga ko'rsatmalar qanday bo'ladi?
12. To'g'ri ichakni kesish operatsiyasi texnikasi qanday?
13. To'g'ri ichakning shilliq pardasini kesish usullarini izohlang.

